



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 468 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukxonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
<b>Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov</b>	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
<b>Musayeva Shoirazimovna</b>	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
<b>Ж.Я.Нуриллаев</b>	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubaevich</b>	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar .....	44
<b>Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li</b>	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
<b>Fayziyev Rabim Alikulovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti .....	60
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	67
<b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik) .....	72
<b>Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna</b>	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
<b>Mahamatova Maftuna</b>	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
<b>Koshanov Abdimurat Azat uli</b>	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
<b>Nurillayev Jasurbek Davronbekovich</b>	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
<b>Soatova Nodira Boboxanovna</b>	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li</b>	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
<b>Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li</b>	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
<b>Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna</b>	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida .....	117
<b>Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich</b>	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati .....	122
<b>Bauyetdinov M.J.</b>	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей .....	128
<b>Алимова Райхона Баходировна</b>	
Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
<b>Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari .....	143
<b>Nematulloev Suxrob Sobirovich</b>	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi .....	148
<b>Kamola Xaydarova</b>	
“Sibir daryolarining burilishi” loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili .....	153
<b>Mahmudov Nosir Mahmudovich</b>	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli .....	159
<b>Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li</b>	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises .....	165
<b>Khalilov Bekzod Akhmatovich</b>	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
<b>Mirtursunova Dinara Anvarovna</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
<b>Tangriyev Izzat Raxmatullayevich</b>	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
<b>Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin</b>	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish .....	186
<b>Nodirov Azizxon Asrorovich</b>	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari .....	192
<b>Bexzod Qo'ziboev</b>	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста .....	197
<b>С.С. Убаева</b>	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati .....	201
<b>Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich</b>	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....	206
<b>Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna</b>	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili .....	210
<b>Baqoyev Husan Nuriddinovich</b>	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish .....	216
<b>Nuraliyeva Komila Sanakulovna</b>	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati .....	221
<b>Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “yashil investitsiyalar” dan foydalanishning xorij tajribalari .....	225
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna</b>	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
<b>Raxmonova Feruza Musaqlovna</b>	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
<b>Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri.....	240
<b>Karshiyev Adham Anvarovich</b>	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....	245
<b>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
<b>Talapova Nargiza Baxriddinovna</b>	



“Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari” .....	255
<b>Saidbekova Feruza Anvarbek qizi</b>	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari .....	258
<b>Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich</b>	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет .....	262
<b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b>	
Tijorat banklarining o‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri .....	270
<b>Masharipov Rasulbek Jo‘rabekovich</b>	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘nalishlari .....	273
<b>Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich</b>	
O‘zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi .....	277
<b>Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li</b>	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o‘zgarish tendensiyalari .....	281
<b>Zakirova Umida Maxamadaminovna</b>	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi .....	286
<b>Po‘latov Abdulloh Xolxo‘jayevich</b>	
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана) .....	291
<b>Ахмедов Дилшод Турсункулович</b>	
Robototexnika asoslari va maktab ta’limida qo‘llanilishi .....	298
<b>Tuxliyev Muslimbek Sherzod o‘g‘li</b>	
Sun‘iy intellektlar yordamida o‘quvchilarni hayotiy faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishi .....	303
<b>Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo‘rayevna, Kurbanov Azimjon Jo‘raboy o‘g‘li</b>	
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari .....	316
<b>Saypiddinov Shukurullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o‘g‘li</b>	
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari .....	320
<b>Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich</b>	
O‘zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o‘zgarish tendensiyalari va istiqbollari .....	326
<b>Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</b>	
Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi .....	330
<b>Madieva Zuxra Iskandarbekovna</b>	
Inson resurslarini o‘rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta’rifiy tahlil .....	336
<b>Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich</b>	
Bandlikni ta’minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli .....	340
<b>Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova</b>	
Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish maqsad va choralari .....	346
<b>Xoliyorov Xomid Boynazarovich</b>	
Разработка экспертной системы для оценки финансового состояния предприятия .....	352
<b>Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna</b>	
Farg‘ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi: panel regressiya tahlili .....	362
<b>Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi</b>	
O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari .....	368
<b>Farmonov Ilhomjon Iqboljon o‘g‘li</b>	
Xorijiy tajriba asosida korxonalar innovatsion faolligini boshqarishni takomillashtirish .....	374
<b>Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi</b>	
Mahalliy davlat hokimiyati organlarida milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish .....	380
<b>G‘aniev Elyor Sobirjonovich</b>	
O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishning ahamiyati .....	386
<b>Mirzayev Muzaffar Maxmudovich</b>	



The role of international investments in greening and ecological rehabilitation of the aral sea region .....	392
<b>Ospanova Feruza Bazarbaevna</b>	
“Зеленое направление” совершенствования бухгалтерского учета .....	397
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
Xarajatlarni kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olishni takomillashtirish .....	403
<b>Xamidova S.Ya.</b>	
Mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning metodologik asoslari va ularni takomillashtirish.....	409
<b>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</b>	
O'zbekistonda kichik turar joy biznesini rivojlantirishda xorijiy tajribalar .....	414
<b>Yo'ldashev Bekzodjon Sherzodjon o'g'li</b>	
Tijorat banklarida davlat maqsadli dasturlarini moliyalashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar.....	419
<b>Shodiyev Shuhrat Sunnat o'g'li</b>	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing strategiyalaridan foydalanishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	426
<b>Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi</b>	
Risk management in commercial banks, methodological approaches and practical implementation .....	433
<b>Baymuratova Zina Aqilbekovna, Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi</b>	
The impact of competition on economic growth: evidence from uzbekistan's automotive industry.....	439
<b>Saydaliyeva Dilrabo Baxriddin qizi</b>	
Raqamli texnologiyalarning oliy talim xizmatlarini rivojlantirishdagi o'rni.....	444
<b>Mirzaxadjayeva Shahzoda Shuxratovna</b>	
Развитие производства сельскохозяйственной продукции путем развития цифровых технологий.....	450
<b>Юсупов Мухиддин Соатович</b>	
Tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish risklarini boshqarish amaliyotini takomillashtirish .....	457
<b>Berdiyev Akram O'ktamovich</b>	
Iqtisodiy tarmoqlarni soliqqa tortish orqali investitsiya loyihalarini rivojlantirish.....	463
<b>Sharipov Eldor Salohiddin o'g'li</b>	



# IQTISODIY TARMOQLARNI SOLIQQA TORTISH ORQALI INVESTITSIYA LOYIHALARINI RIVOJLANTIRISH



**Sharipov Eldor Salohiddin o'g'li**

O'zbekiston Respublika valyuta birjasi  
Hisob-kliring palatasi bosh mutaxassisi

Tel: 90-459-88-88

[Sharipoveldor1993@gmail.com](mailto:Sharipoveldor1993@gmail.com)

[ORCID: 0009-0006-2723-3762](https://orcid.org/0009-0006-2723-3762)

**Annotatsiya:** Bizning ushbu tadqiqotimizda rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida iqtisodiy tarmoqlarni soliqqa tortish mexanizmlari tahlil qilinib, investitsiya loyihalarini rivojlantirish masalasiga bag'ishlandi. Ish davomida investitsiya loyihalarida soliqlarning o'rni va ahamiyati, rivojlangan davlatlar tajribasida qo'llanilayotgan soliqqa tortish mexanizmlarining investitsion dasturlarga ta'sirini baholash usullari va modellari ko'rib chiqilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida ushbu yonsdashuvlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilmoqda.

**Kalit so'zlar:** soliq, investitsiya, imtiyoz, davlat moliya nazorati, moddiy ishlab chiqarish, moliyaviy nazorat, davlat siyosati, iqtisodiy xavfsizlik, bozor munosabatlari, pul jamg'armalari, soliq subyektlari, moliya tizimi, majburiy to'lovlar.

**Abstract:** This study is dedicated to the development of investment projects by analyzing the mechanisms of taxation of economic sectors, taking into account the experience of developed countries. The study analyzes the role and place of taxes in investment projects, methods and models for assessing the impact of tax mechanisms of developed countries in this area on investment programs, and develops proposals for their improvement in the context of the Uzbek economy.

**Key words:** tax, investment, privilege, state financial control, material production, financial control, state policy, economic security, market relations, monetary savings, tax entities, financial system, mandatory payments.

**Аннотация:** Наше исследование посвящено развитию инвестиционных проектов с учетом опыта развитых стран, анализа механизмов налогообложения отраслей экономики. В работе анализируются роль и место налогов в инвестиционных проектах, методы и модели оценки влияния налоговых механизмов развитых стран на инвестиционные программы, разрабатываются предложения по их совершенствованию в условиях экономики Узбекистана.

**Ключевые слова:** налоги, инвестиции, льготы, государственный финансовый контроль, материальное производство, финансовый контроль, государственная политика, экономическая безопасность, рыночные отношения, денежные фонды, субъекты налогообложения, финансовая система, обязательные платежи.



## KIRISH

Mamlakatimizdagi ochiqlik siyosati va kuchli investitsion yo'nalishlar natijasida iqtisodiyot barqaror o'sib bormoqda. Yangi mahsulotlarni o'zlashtirish hamda yirik investitsiya loyihalarida mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish mamlakatimizning ustuvor maqsadlaridan biridir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 6,5 % ga o'sib, 115 milliard AQSH dollariga yetdi.

YIMning 6,5 % ga o'sishining asosiy omillaridan biri sifatida mamlakatga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmining keskin ortganini ko'rsatish mumkin. Xususan, 2024-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan 1,6 baravarga oshib, 35 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

Ayniqsa, 2024-yilda tog'-kon sanoati, neft-gaz, kimyo va qishloq xo'jaligi sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar ikki barobar oshgan. 50 ta tumanga 100 million AQSH dollaridan ortiq sarmoya yo'naltirilgan.

Investitsiya – bu shaxslar, kompaniyalar yoki davlatlar tomonidan kapitalni moliyaviy yoki moddiy aktivlarga kiritish orqali kelajakda foyda, daromad yoki boshqa iqtisodiy manfaat olish maqsadida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir.

Umuman olganda, bugungi kunda butun dunyoda investitsiyaning turli shakllari qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ular barchasi yagona maqsadga – iqtisodiy foyda olishga qaratilgan. Bu foyda investitsiyani kirituvchi tomon uchun ham, uni jalb qiluvchi tomon uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya uchun eng qulay muhit iqtisodiy barqarorlik davrida yuzaga keladi. Aynan shunday barqaror hududlar esa investorlar uchun eng jozibali makon hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion muhitni shakllantirishda soliqqa tortish metodologiyasi va umuman soliqlarning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri haqida jahon, shuningdek, respublikamiz olimlari tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan va ularning ilmiy ishlarida mazkur masalalarga e'tibor qaratilgan.

Xususan, Haotian Zhang, Shengfeng Lu va Sixia Chen (2024) o'z tadqiqotlarida markaziy hukumat tomonidan cheklangan nazorat mavjudligi soliq boshqaruvida tartibsizliklarga olib kelishini, bu holat soliqqa tortish tizimida adolat va shaffoflikni kamaytirishini, korxonalar uchun noaniqlikni kuchaytirishini va investitsiya muhiti beqarorligiga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar<sup>1</sup>.

Tadqiqotchilarning fikricha, soliq pog'onalarining birlashtirilishi soliq standartlarini normallashtiradi, soliqqa tortish qobiliyatini oshiradi, korporativ soliq yukining og'ishlarini kamaytiradi va hukumatlar o'rtasidagi "pastga tushish poygasi" (ya'ni soliq yukini pasaytirish bo'yicha raqobat)ni cheklaydi. Birlashgandan so'ng mahalliy hukumatlarning soliq ijrosi ustidan ta'siri zaiflashadi. Bu esa ularning investitsiyalarni jalb qilish va soliq imtiyozlari orqali kapital harakatini rag'batlantirishga bo'lgan motivatsiyasini kamaytiradi.

Bundan tashqari, soliq pog'onalari birlashganidan so'ng mahalliy hukumatlar ilgari soliq raqobati o'rniga xarajatlar bo'yicha raqobatga kirishadi. Natijada esa, korxonalar faoliyat yuritayotgan hududlarda davlat xizmatlari ta'minoti sezilarli darajada yaxshilanadi.

Irem Guceri va Maciej Albinowski (2021) tadqiqotlarida iqtisodiy sharoitga bog'liq holda ikki xil investitsiyaviy soliq imtiyozi siyosatining natijalari solishtiriladi. Ulardan biri iqtisodiy barqarorlik davrida, ikkinchisi esa yuqori darajadagi beqaror sharoitda joriy etilgan. Korxonalarining o'lchamiga qarab ularning imtiyozlardan foydalanish imkoniyati farq qilgan va bu sharoit tajriba va nazorat guruhlarining shakllanishiga olib kelgan<sup>2</sup>.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy barqarorlik davrida joriy etilgan soliq imtiyozlari investitsiyalar hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq, yuqori darajadagi beqarorlik sharoitida esa natijalar turlicha bo'lgan: iqtisodiy barqarorlikdan nisbatan himoyalangan korxonalar siyosatga kuchli javob qaytargan, ammo beqarorlik ta'siriga ko'proq duch kelgan korxonalarda investitsion faollik pasaygan. Bu esa barqarorlik davrlari investitsiyalarni rag'batlantirish uchun muhim imkoniyat ekani, yuqori beqarorlik davrida esa korxonalar ko'proq "kutish va kuzatish" strategiyasini tanlashga moyil bo'lishini ko'rsatadi.

Kamolov (2018)ning fikricha, taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari natijaviylikka yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ya'ni, soliq imtiyozlari korxonalar rentabelligining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilishi, ishlab chiqarish quvvatlarining samarali ishlatilishi kabi mezonlardagi ijobiy o'zgarishlar asosida berilishi maqsadga muvofiqdir<sup>3</sup>.

J.K. Musayeva (2021) ta'kidlaganidek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti natijasida

1 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0313592624002704> Haotian Zhang, Shengfeng Lu va Sixia Chen Does centralization of tax administration regulate tax competition? Evidence from a quasi-natural experiment in China

2 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1544612324016957> Irem Guceri, Maciej Albinowski Investment responses to tax policy under uncertainty

3 [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/16\\_Kamolov.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/16_Kamolov.pdf)



bevosita investitsiyalar, portfel investitsiyalar va bank ssudalaridan iborat xalqaro kapital oqimi sezilarli darajada faollashdi. Bu oqim globallashuvning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy resurslarning xalqaro miqyosda harakatlanish sur'atlari xalqaro savdo hajmi o'sishidan ancha yuqoriga chiqqan. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining tez sur'atlar bilan ortib borayotgani diqqatga sazovordir.

Xalqaro kapital harakati uning barcha ishtirokchilari uchun iqtisodiy daromad keltiradi. Xorijiy investorlar global bozorlarga kirib borish orqali risklarni diversifikatsiya qiladi va jahon miqyosida yuqori daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Odatda investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlarda foiz stavkalari nisbatan yuqori bo'ladi, bu esa investorlarni o'z kapitallarini ko'proq daromad keltiradigan hududlarga yo'naltirishga undaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolamizda olib borilgan tadqiqot davomida nazariy va amaliy o'rganish, tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik tahlil hamda omilli tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida soliq ma'murchiligini tashkil etish tartibining o'ziga xos xususiyatlari, faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi, aniqlanishi va tahlil etish yo'llarini takomillashtirish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish asosida takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Investitsiya – bu kelajakda naflilik olish maqsadida turli loyihalarga, aktivlarga yoki moliyaviy instrumentlarga kiritiladigan mablag'lardir. Naflilik esa soliq tushumlarining o'sishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Soliq tushumlari Respublikamiz budjetining salmoqli qismini tashkil etadi. 2024-yilda soliqlar tushumi 199,6 trln so'mga yetgan.

1-jadval. Soliq turlari kesimida soliq tushumlari to'g'risida ma'lumot 4 mlrd.so'm

Soliq turi	Soliq tushumlari			
	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
QQS	25 572	32 812	33 983	39 570
Aksiz solig'i	12 779	13 077	15 133	17 765
Foyda solig'i	38 363	37 650	40 779	52 666
J.Sh.ning daromad solig'i	18 918	24 285	29 518	35 394
Yer qaridan foydalanganlik solig'i	15 812	13 887	15 300	20 169
Suv resurslaridan foydalanganlik solig'i	684	704	791	1 174
Mol-mulk solig'i	2 457	4 015	5 098	6 805
Yer solig'i	4 083	5 306	6 890	8 214
D-t boji va jarimalar	3 333	4 236	7 263	7 972
Boshqa tushumlar	5 969	12 416	11 161	9 810
Jami	127 970	148 388	165 916	199 539

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, budjetda soliqlarning eng salmoqli qismini foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tashkil etadi. Ushbu soliqlar umumiy tushumning qariyb 64 foizini tashkil qiladi (1-rasm).


4 Soliq.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayёрlandi.



1-rasm. Soliқ tushumlarining soliқ turlari bo'yicha o'sish sur'ati<sup>5</sup>

Soliқ tushumlarini nazorat qilish, ya'ni yildan yilga tushumlarning o'sib borishini rag'batlantirish sabablaridan biri sifatida soliқ ma'murchiligini keltirish mumkin. Mamlakatda soliқ siyosati bilan birga soliқ ma'murchiligi ham birdek oqilona yuritilgan taqdirda, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki budjetga tushadigan mablag'larning o'sishiga ham erishish mumkin.

So'nggi 4 yilda soliқ tushumlari 71,5 trln so'mga yoki 56 foizga o'sganini kuzatish mumkin. Eng katta o'sish mol-mulk soliғida kuzatilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 1,8 barobarga oshgan. Bu esa mamlakatdagi soliқ siyosati ko'proq mablag'larni ko'chmas mulkka emas, balki aylanmalarni ko'paytirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Keyingi o'rinlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliғi 87 foizga, suv resurslaridan foydalanganlik soliғi 72 foizga, QQS esa 55 foizga o'sgan (2-rasm).



2-rasm. 2024-yilda soliқ turlari kesimida tushumlarning ulushi va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati<sup>6</sup>

5 Soliқ.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayёрланди.

6 Soliқ.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayёрланди.



Tushumlarning o'sib borishiga sabab bo'luvchi omillardan yana biri sifatida mamlakatdagi soliq turlari hamda soliqlarning hisoblash tartiblariga oxirgi yillarda uncha katta o'zgarishlar kiritilmayotgani, kiritilayotgan o'zgarishlarning esa asosan soliq yengilliklariga qaratilayotgani bilan izohlash mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan xorijiy tajriba manbalari va tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq siyosatidagi barqarorlik mamlakat iqtisodiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Soliq siyosati barqaror bo'lishi soliq to'lovchilarning rivojlanishiga, ya'ni biznes rejalaridagi turg'unlikka erishishiga imkon yaratadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining kafolatlari barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Xorijiy tadqiqotchilar Irem Guceri va Maciej Albinowski fikrlarini to'liq tasdiqlagan holda aytish mumkinki, agar mamlakatda iqtisodiy beqarorlik hukm sursa, qanday imtiyozlar yoki yengilliklar taqdim etilmasin, ishonch bo'lmasa, soliq to'lovchilarni boshqacha aytganda, investorlarni jalb qilishning imkoni bo'lmaydi.

Mamlakatimiz soliq siyosatida ham amalga oshirilgan soliq ma'murchiligidagi o'zgarishlar bunga misol bo'la oladi. Jumladan, "yirik soliq to'lovchilar" tushunchasining joriy etilishi va ularga markazlashgan tarzda xizmat ko'rsatish tizimining yo'lga qo'yilishi bir tomondan nazoratni kuchaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan soliq to'lovchilarning muammolarini tezroq hal qilish va amaliy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini oshirdi. Natijada korxonalar iqtisodiy jihatdan rivojlanishga erisha boshladi.

Aniqlik kiritadigan bo'lsak, Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 12-iyuldagi "Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3172-son<sup>7</sup> bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hujjatga muvofiq, dastlab yirik soliq to'lovchilarni aniqlovchi mezonlardan biri sifatida kalendar yili davomida sof tushum miqdorining 100 mlrd so'mdan ortiq bo'lishi belgilangan edi. 2024-yil 1-iyulda kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra esa ushbu ko'rsatkich bazaviy hisoblash miqdorining 735 ming barobari etib belgilandi (ya'ni 01.10.2024-yildan boshlab BHM – 375 000 so'm, demak  $735\ 000 \times 375\ 000 = 275,6$  mlrd so'm).

Bundan ko'rinib turibdiki, markazlashgan tartibda soliqqa tortish tizimi soliq to'lovchilar uchun ham qulayliklar yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida yirik soliq to'lovchilar sonining o'sib borishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, mamlakatda investitsion muhitni ta'minlashda soliq siyosatidagi turg'unlikni barqaror saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, soliq siyosatidagi yirik o'zgarishlarni ma'lum bir oraliq masalan, har 5 yilda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yondashuv natijasida ichki va tashqi investorlar kamida 5 yillik kafolatga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. –Т.: “Адолат”, 2020
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепсияси тўғрисидаги” 2018-йил 29-июндаги ПФ-5468-сон фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиqlаш ва уни саваралиамалга ошириш тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 6 октябрдаги ПФ-6079 сонли Фармони
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 25 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг «2025 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида»ги Қонуни ижросини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-455- сон қарори
5. Haotian Zhang, Shengfeng Lu va Sixia Chen Does centralization of tax administration regulate tax competition? Evidence from a quasi-natural experiment in China (2024).
6. Мусаева Ж. К. (2021) Тенденции развития цифровой экономики и образования в Узбекистане //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – С. 246-250.
7. Мусаева Ж. К. (2021) Саноат корхоналарида асосий капиталдан самарали фойдаланиш йўллари //Журнал Инновации в Экономике – Т. 4. – №. 6
8. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0313592624002704> Haotian Zhang, Shengfeng Lu va Sixia Chen Does centralization of tax administration regulate tax competition? Evidence from a quasi-natural experiment in China
9. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1544612324016957> Irem Guceri, Maciej Albinowski Investment responses to tax policy under uncertainty
10. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/16\\_Kamolov.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/16_Kamolov.pdf)
11. <https://president.uz/uz/lists/view/7825>
12. <http://www.lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси қонунлари базаси сайти
13. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/01/16/yim/>
14. <http://www.imv.uz> – Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги сайти
15. <http://www.soliq.uz> – Ўзбекистон Республикаси солиқ қўмитаси сайти
16. <http://www.stat.uz> – Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси сайти

7 <https://lex.uz/docs/-4416401>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>